

# **Uzbekistan Airways Express Namangandan Irkutsk va Samaraga parvozlarni amalga oshirishni boshladi**

**2022 2 February**

2022-yil 2-fevral kuni Uzbekistan Airways Express Namangandan Irkutsk va Samaraga ilk parvozni amalga oshirmoqda. Namangan – Irkutsk – Namangan va Namangan – Samara – Namangan yoʻnalishi boʻyicha muntazam aviaqatnovlar chorshanba kunlari «toʻliq ekonom» formatida amalga oshirilmoqda.

Eslatib oʻtamiz, Uzbekistan Airways «Sharqiy» xab loyihasi doirasida 2022-yil 30-yanvardan boshlab Namangandan Moskva, Perm, Samara, Omsk, Orenburg, Ufa, Krasnodar, Yekaterinburg va Novosibirskka Airbus 320 havo kemalarida muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirishni boshladi.